

DEPUTATNING DAXLSIZLIGI: AYRIM XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI

Abduvoxidbek Ergashev

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati devonining Hududiy vakillik organlari faoliyatini o'rganish markazi bosh maslahatchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11083486>

Annotatsiya. Ushbu maqolada deputatning daxlsizligi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida deputatning daxlsizligi masalasi, mahalliy Kengash deputatining vkolatlari muddati, deputatning har qanday jinoiy javobgarlik, ushlab turish yoki qamoqqa olishdan himoyalanganligi masalalasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: diplomatiya, tashqi siyosat, daxlsizlik, xalqaro hamkorlik, xalq deputatlari, formal immunitet, moddiy immunitet, senati a'zosining maqomi.

IMMUNITY OF THE DEPUTY: THE EXPERIENCE OF SOME FOREIGN COUNTRIES

Abstract. This article covers the immunity of the deputy, the issue of the immunity of the deputy in the Constitution of the Republic of Uzbekistan, the term of office of the deputy of the local council, the issue of the protection of the deputy from any criminal liability, detention or imprisonment.

Key words: diplomacy, foreign policy, immunity, international cooperation, people's deputies, formal immunity, material immunity, the status of a member of the Senate.

НЕПРИКОСНОВЕННОСТЬ ДЕПУТАТА: ОПЫТ НЕКОТОРЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН

Аннотация. В данной статье рассматриваются неприкосновенность депутата, вопрос неприкосновенности депутата в Конституции Республики Узбекистан, срок полномочий депутата местного Совета, вопрос защиты депутата от любых действий. уголовная ответственность, задержание или тюремное заключение.

Ключевые слова: дипломатия, внешняя политика, иммунитет, международное сотрудничество, народные депутаты, формальный иммунитет, материальный иммунитет, статус члена Сената.

Deputatning daxlsizligi – demokratik prinsip bo'lib, unga ko'ra, davlat hokimiyati vakolatli organining deputati shu organning rozilgisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Mamlakatimizda deputatning daxlsizligi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (104-modda), “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun (6-modda), “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a‘zosining maqomi to‘g‘risida”gi Qonun (13-modda) hamda “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashi deputatining maqomi to‘g‘risidagi Qonun (11-modda)larda mustahkamlangan.

Konstitutsiyaning 104-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senati a‘zosi daxlsizlik huquqidan foydalanadilar.

Ular tegishincha Qonunchilik palatasi yoki Senatning roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi yoki sud tartibida beriladigan ma‘muriy jazo choralariga tortilishi mumkin emas.

Shuningdek, mahalliy Kengash deputati ham o‘zining vakolatlari muddati mobaynida daxlsizlik huquqiga ega bo‘ladi.

Tegishli xalq deputatlari Kengashining roziligisiz deputat mazkur hududda jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi yoki sud tartibida beriladigan ma‘muriy jazoga tortilishi mumkin emas.

Bu borada xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish ham o‘ziga xos ahaimtyaga ega.

Jumladan, Polshada, olimlarning fikricha¹, deputatning daxlsizligi (immuniteti) mazmunan ikki turga bo‘linadi:

1. **Formal immunitet** – deputatning har qanday jinoiy javobgarlik, ushlab turish yoki qamoqqa olishdan himoyalanganligi (Polsha Konstitutsiyasining 105-moddasi).

Bunday daxlsizlik huquqining asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

– ushbu turdagi immunitet huquqi deputatga nisbatan faqatgina jinoiy javobgarlik bilan bog‘liq hollargagina tatbiq etiladi.

– deputatga bir jinoyat ishi bo‘yicha berilgan ruxsat ushbu jinoyat ishi doirasida kelgusida barcha protsessual choralarni ko‘rishga asos bo‘ladi.

– deputat qonunbuzarlikka u deputat etib saylangan davrdan oldin yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, parlamentning talabi bilan deputatning vakolat muddati tugagunga qadar faqatgina to‘xtatib turilishi mumkin;

¹ “Статус члена парламента в Республике Польша”, Иван Рассохин, Сравнительное Конституционное Обозрение (2009, №2-69).

– deputat immunitet (daxsizlik) huquqidan faqatgina muayyan jinoyat ishi bo'yicha mahrum qilinishi mumkin. Ya'ni, uning daxlsizlikdan mahrum qilinishi boshqa jinoyat ishi bo'yicha parlamentdan ruxsat so'ramaslikni anglatmaydi.

– deputatni daxlsizligidan mahrum qilishga ruxsat berish yoki rad etishga doir qaror faqatgina bir marotaba qabul qilinadi va qayta ko'rib chiqishga yo'l qo'yilmaydi.

– deputat parlamentning ruxsatisiz ushlab turilishi yoki qamoqqa olinishi mumkin emas, bundan jinoyat ustida qo'lga olingan hollar mustasno. Bunday hollarda deputatning ushlab turilganligi haqida darhol parlamentga ma'lum qilinadi. E'tiborlisi, parlament ish bilan tanishib chiqib, uni ushlab turish yoki qamoqqa olish tarzidagi chorani bekor qilishni talabi qilishga vakolatli.

– Polsha qonunchiligi bo'yicha deputatni jinoiy javobgarlikka tortishga ruxsat berilishi uning immunitet huquqini bekor qilishni anglatmaydi. Agar ham immunitet huquqi, ham jinoiy javobgarlikka tortishra rozilik so'ralayotgan bo'lsa, ular bo'yicha alohida-alohida qaror qabul qilinishi talab etiladi.

– deputat daxlsizlik huquqidan o'z ixtiyori bilan ham voz kechishi mumkin.

2. **Moddiy immunitet** – deputatlik faoliyati bilan bog'liq harakatlarni amalga oshirganlik mutlaqo javobgarlikka tortilmaslik huquqi. Bunday huquq bekor qilinmaydi, ko'rib chiqilmaydi.

Moddiy immunitet huquqini olimlar absolyut immunitet huquqi ham deb atashadi.

Sababi bunday immunitet – formal immunitetdan farqli ravishda nafaqat jinoiy javobgarlikdan, balki ma'muriy, fuqarolik-huquqiy, konstitutsiyaviy (siyosiy) javobgarlikdan ham ozod etadi (deputatning o'z-axloqi bilan bog'liq intizomiy javobgarlik bundan mustasno).

Polsha qonunchiligida jinoiy, ma'muriy, fuqarolik-huquqiy va intizomiy javobgarlik bilan birga, konstitutsiyaviy javobgarlik instituti ham mavjud.

Senator yoki deputatlar tomonidan konstitutsiyaviy qonun buzilishiga yo'l qo'yilgan taqdirda (masalan, deputatlik bilan birga iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishi kabilar) Polsha Davlat Tribunali ularga nisbatan deputatlik faoliyatini muddatidan ilgari tugatishgacha bo'lgan chora ko'rishi mumkin (parlament roziligi bilan).

Deputatni bunday javobgarlikka tortish tashabbusi bilan parlament o'zi ham tashabbus bilan chiqishi mumkin.

Bunda, deputatning absolyut immunitet huquqi uchinchi shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlariga putur yetkazgan taqdirdagina, palataning ruxsati bilan javobgarlikka tortilishi mumkin.

Qayd etish lozimki, ayrim mamlakatlarda jinoiy javobgarlik uchun immunitet huquqi mavjud emas.

Misol uchun, Amerika Qo‘shma Shtatlarida – Kongress a‘zosi Kongres faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan jinoyati uchun umumbelgilangan asosda javobgarlikka tortiladi.

Ukrainada – 2019 yilda Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgartirishlar bilan deputatning jinoiy javobgarlikdan daxlsizlik huquqi bekor qilingan.

AQSh, Rossiya va Polshada – deputatlik faoliyatini amalga oshirish chog‘ida biror ma‘lumotdan xabardor bo‘lgan hollarda deputatni guvoh sifatida jalb qilishga yo‘l qo‘yilmaydi (guvohlik immuniteti).

Venesiya komissiyasining Parlamentarizm immuniteti chegarasi va uni bekor qilish tartibi haqidagi hisobotiga ko‘ra², deputatlarning daxlsizlik huquqi 2 instrumentdan iborat: “So‘z erkinligi immuniteti” (non-liability) va “Javobgarlikka tortilishdan himoya qilinganlik immuniteti” (inviolability).

“So‘z erkinligi immuniteti” – mazmunan parlamentda bildirgan fikri, bergan ovozi va ko‘targan tashabbusi uchun javobgarlikka tortilmaslik huquqini ifoda etadi.

“Javobgarlikka tortilishdan himoya qilinganlik immuniteti” esa – deputat sifatida faoliyat yuritayotgan davr oralig‘ida sodir etgan jinoiy qilmishi uchun uni ushlab turish, qamoqqa olish va javobgarlikka parlament ruxsati bilangina tortilishi mumkinligini anglatadi.

Anglo-sakson huquq tizimidagi davlatlarda “So‘z erkinligi immuniteti” kafolatlangan bo‘lib, deputat sifatida o‘z faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan hollarda sodir etgan qilmish uchun alohida immunitet berilmagan yoki juda past darajada berilgan (Masalan, AQSh, Buyuk Britaniya).

Anglo-sakson huquqidan farqli ravishda “Fransiya modeli”da Milliy assambleya (parlament)ning ijro etuvchi hokimiyat organlari ustidan yaqqol ustunligini kafolatlash maqsadida “Javobgarlikka tortilishdan himoya qilinganlik immuniteti” kiritilgan.

Sababi, bunday huquq – 1789 yillardagi tartibsizliklar, ijro hokimiyatining parlamentga tazyiqi yuqori bo‘lgan davrda parlament a‘zolari uchun juda muhim hisoblangan.

“Fransiya modeli” asosida keyinchalik qator Roman-German huquq tizimidagi davlatlar parlamentlarida bunday immunitet belgilangan (masalan, 1990 yillardan boshlab, Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlari ham bu immunitetni joriy qila boshlagan).

² European commission for democracy through law (Venice Commission), Report on the Scope and lifting of parliamentary immunities, adopted by Venice Commission at its 98th plenary session (Venice, 21-22 march 2014).

Ushbu model – parlament deputatlarining yuqoridagi har ikki immuniteti (“So‘z erkinligi” va “Jinoiy javobgarlikka tortilmaslik” immunitetlari) o‘zida mujassamlashtirilganligi bilan ahamiyatli (masalan, yuqoridagi Polsha tajribasida ana shu model yoritilgan).

So‘ngi yillardagi xorijiy mamlakatlarda amalga oshirilayotgan islohotlar tendensiyasi “Jinoiy javobgarlikka tortilmaslik immuniteti” (mutlaq immunitet) chegarasini belgilash va qisqartirishga tomon harakatlanmoqda.

REFERENCES

1. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. – To‘ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashr. Toshkent: Yuridik adabiyotlar Publish, 2022. – 313-329-betlar.
2. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. -Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi. Harbiy-texnik instituti, 2019. 564-581-betlar.
3. Mamatov X.T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. – Toshkent: Yurist-media markazi, 2018. 351-370 betlar.
4. Jalilov, N. (2023). voyaga yetmaganlarning jinoyat sodir etishining kriminologik tahlili. sharq falsafasi, 57.
5. o‘g‘li jn. huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasining usul va shakllari. ta’lim fidoyilari. 2023;12:99-105.
6. Konstitutsionnoe pravo. Uchebnik // Avtorskiy kollektiv. – Tashkent: Tashkentskiy gosudarstvennyy yuridicheskiy universitet, 2018 g. S. 460-485.
7. Ides A., May C. N., Grossi S. Examples & Explanations for Constitutional Law: Individual Rights. – Wolters Kluwer Law & Business, 2018. 599 paGES.
8. Chemerinsky E. Constitutional law. – Aspen Publishers, 2019.
9. Inside Constitutional Law: What Matters and Why. Russell L. Weaver, and others – Aspen Publishers, 2009. PaGES 143-158.
10. Бозорова, У., & Ялилов, Н. (2022). Jamiyatda xotin-qizlarning zo‘ravonlik jinoyati jabrlanuvchisi bo‘lib qolishining oldini olish masalalari. *Вопросы совершенствования механизмов противодействия коррупционным рискам в сфере государственного управления*, 1(01), 117-121.